

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UO‘K: 30.43:339.727.22(575.1)

SAYDULLAYEV AZAMAT JO‘RAQUL O‘G‘LI

**MILLIY IQTISODIYOTGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY
INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI EKONOMETRIK
TADQIQ QILISH**

08.00.06-Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:

f-m. f-n., prof. R.A. Fayziyev

Toshkent-2025

	MUNDARIJA	
	KIRISH.....	3
	IQTISODIYOTGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY	
1-bob.	INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI EKONOMETRIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1-§	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning nazariy va ilmiy mohiyati..	13
1.2-§	O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni ekonometrik tadqiq etishning ahamiyati va mohiyati.....	24
1.3-§	Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘rni.....	34
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	43
2-bob.	TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR EKONOMETRIK TAHLILI.....	45
2.1-§	Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regressiya modelini tuzish.....	45
2.2-§	Xorijiy kapital o‘zlashtirilishiga ta’sir qiluvchi omillarning regressiya modeli natijalarining ekonometrik tahlili.....	55
2.3-§	O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining prognozini ishlab chiqish	65
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	75
3-bob.	JALB QILINGAN XORIJIY INVESTITSİYALARNI IQTISODIYOTGA VA ATROF-MUHITGA TA’SIRINI EKONOMETRIK TADQIQ QILISH.....	77
3.1-§	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar shaklidagi xorijiy kapital kirib kelishining makroiqtisodiy holatga ta’siri.....	77
3.2-§	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ko‘rinishidagi xorijiy kapital kirib kelishining yashil iqtisodiyot, ekologiya va atrof-muhitga ta’sirini ekonometrik modellashtirish.....	91
3.3-§	Xorijiy investitsiyalarning yashil iqtisodiyotga ta’sirini ekonometrik modellarini tahlili va prognozi.....	100
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	109
	XULOSA VA TAKLIFLAR	110
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	114
	ILOVALAR.....	121

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahon iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi, texnologiyalar transferi, yangi ish o'rinlari yaratilishi hamda tashqi savdo salohiyatining oshishiga, rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shmoqda. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar faqat kapital oqimini ta'minlash bilan cheklanmasdan, balki mahalliy bozorda raqobatbardoshlikni oshirib, tarmoqlar bo'yicha modernizatsiya va innovatsion faoliyatni rag'batlantirmoqda. "2024-yilda jahon bo'ylab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 11% ga oshib, 1,4 trln AQSh dollariga yetdi, bu esa uning xalqaro iqtisodiy integratsiyadagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, rivojlanishning yuqori bo'lishini ta'minlash uchun har yili xalqaro miqyosda 500 mlrd AQSh dollari miqdorida davlat va xususiy moliyalashtirish zarur bo'lib, uning asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan qoplanishi kutilmoqda"¹. Shu bilan birga, ushbu investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniq baholash maqsadida ekonometrik modellar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tahlil qilish, tendensiyalar va prognozlar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Demak, iqtisodiy siyosat yuritishda asosli qarorlar qabul qilish uchun ekonometrik tadqiqotlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning samaradorligini baholashda zarur vositadir.

Milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonini chuqurroq anglash va uning samaradorligini oshirish maqsadida ekonometrik tadqiqotlarni takomillashtirish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan birini tashkil etadi. Bunda, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sish, bandlik darajasi, texnologiya transferi va eksport salohiyatiga ta'sirini o'lchovchi dinamik panel ma'lumotlar modellarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, investitsion muhitni belgilovchi institutsional

¹ World Investment Report 2024. Preface. Guterres, Antonio. United Nations Conference on Trade and Development, 2024. [Elektron resurs]. URL: <https://digitallibrary.un.org/record/4052094?ln=en> pdf

omillarni va siyosiy barqarorlikni qamrab olgan kompleks modellarni shakllantirish hamda noaniqlik va risklarni hisobga olish imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi. Ushbu yo‘nalishlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish imkonini yaratadi. O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shuningdek, bugungi kunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishning muhim omilli sifatida e‘tirof etilmoqda. So‘ngi yillarda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo‘ldagi to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun muhim qadamlar tashlanmoqda. Amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida 2016-2023-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotiga jami 49,1 mlrd AQSh dollari miqdorida xorij investitsiyalari va kreditlari jalb etilgan bo‘lib, bundan 18,7 mlrd AQSh dollarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil etgan². Shunga qaramasdan, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, bunda davlat institutlarining sifatini oshirishda keng islohotlarni davom ettirish dolzarb masalalardan bir hisoblanadi. “Bizning asosiy maqsadimiz - O‘zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirishdir. Davlatimiz bozor munosabatlarini rivojlantirishni, investorlar huquqlari ishonchli himoya qilinishini, qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishni, halol raqobat uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratishni, xususiy mulk daxlsizligi va sud tizimining mustaqilligi ta‘minlanishini o‘z zimmasiga olmoqda”³. Shunga ko‘ra, ushbu tadqiqot to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlashga va samaradorlikni baholashga qaratilgan, xorijiy investitsiyalar hajmiga ta‘sir etuvchi omillarning chiziqli modelini ishlab chiqish, rivojlanayotgan mamlakatlarning panel ma‘lumotlari ekonometrik tahlili asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlaridan asosida hisoblangan.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi. [Elektron resurs]. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/7194>

xorijiy investitsiyalar hajmining logarifmik qiymatini oshishi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning hajmini oshishiga ta'sirini baholash, jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va yashil iqtisodiyot o'rtasidagi munosabat asosida dinamik ekonometrik modellash usulida optimal modellarni takomillashtirilgan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni tartibga solish va rag'batlantirish mexanizmlarining korrelyatsion-regressiya bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik model asosida xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-son "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida", 2020-yil 3-avgustda PQ-4796-son "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 28-dekabrda PQ-4937-son "O'zbekiston Respublikasining 2021-2023 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa ushbu sohadagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishiga doir ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq holda bajariladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mohiyati, uning shakllari va nazariy yondashuvlari, mezbon mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir qiluvchi omillar xorijlik iqtisodchilar W.Insaido, N.Biekpe, Kalim Siddique, H.Musibau, Mohammad Mowlaei, R.Lipsey, I.Moosa, R.Vernon,

G.Barkema, F.Vermeulen, I.Faeth, V.Denisia, Ch.Kindleberger, A.Musabeh, P.Buckley, P.Makoni, J.Dunning, S.Wilhelms, S.Morgan, P.Pegkas, T.Baiashvili, L.Gattini, D.Wheeler, M.Ashoka, E.Asiedu, A.Benassy-Quere, M.Coupet, M.Thierry, D.North, R.La Porta, F.Lopez-de Silanes, A.Shleifer, R.Vishny va boshqa olimlar tadqiqotlarida o'z aksini topgan⁴.

Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish, tartibga solishning ilmiy-amaliy masalalari bo'yicha N.Oblomurodov, B.Valiyev, A.Vaxobov, A.Bekmuradov, N.Ismailova, B.Berkinov, A.Isadjanov, I.Mavlanov, N.Sirajiddinov, S.Zakirova, G.Sultanova, L.Mingishev, I.Ilxomjonov, I.Butikov, L.Tashpulatova, N.Maxmudov, J.Muminov, N.Xaydarov, N.Xashimova, Sh.Yo'ldashev va boshqalar chuqur izlanishlar olib borganlar⁵. Mavjud tadqiqotlarda O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb

⁴ Insaïdo W., Biekpe N. Determinants of foreign capital flows: the experience of selected sub-Saharan African countries // *Journal of Applied Economics*. Volume 17. Issue 1, 2014. P. 63-88.; Siddique K. Flows of Foreign Capital into Developing Countries: A Critical Review // *Journal of International Business and Economics*. Volume 2. No.1, 2014. P. 29-46. O'zbekiston iqtisodiyotiga xaziralarni jalb yetishda investitsiya muhitining o'rni // *Qattiq jism texnologiyasi*. – 2020. – T. 63. – Yo'q. 4. – 73-80-betlar.; Musibau H., Mahmood S., Hammed. The Impact of Foreign Capital Inflows, Infrastructure and Role of Institutions on Economic Growth: An Error Correction Model // *Academic Journal of Economic Studies*. Editura Universitara & ADI publication, 2017. P. 35-49. Hududlar tipologiyasi mintaqaviy rivojlanishni birgalikda tashkil yetish vositasi sifatida // *Tomsk davlat universiteti axborotnomasi*. un-a. Iqtisodiyot. No 331. 126–131-c.; Mowlai M. The Impact of Foreign Capital Inflows on Economic Growth on Selected African Countries // *African Journal of Economic and Management Studies*. Emerald, 2018. P. 15.; Lipsey, Robert E., et al. "The role of foreign direct investment in international capital flows." *International capital flows*. University of Chicago Press, 1999. P. 307-362.; Moosa, Imad. *Foreign direct investment: theory, evidence and practice*. Springer, 2002. P. 1.; Vernon, R. *International Investment and International Trade in the Product Cycle*. The Quarterly Journal of Economics, 80, 1966. P. 190-207.; Barkema, Harry G., and Freek Vermeulen. "International expansion through start-up or acquisition: A learning perspective." *Academy of Management journal* 41.1, 1998. P. 7-26.; Faeth, Isabel. "Determinants of foreign direct investment—a tale of nine theoretical models." *Journal of Economic surveys* 23.1, 2009. P. 165-196.; Denisia, Vintila. "Foreign direct investment theories: An overview of the main FDI theories." *European journal of interdisciplinary studies* 3, 2010. P. 54.; Kindleberger, Charles Poor. "American business abroad", 1969. P. 11-12.; Musabeh A. "Main theories of Foreign Direct Investment." *Research gate* 12, 2018. P. 4-5.; Buckley, Peter J., and Mark Casson. *The future of the multinational enterprise*. Palgrave Macmillan, London, 1976. P. 33.; Makoni, Patricia Lindelwa. "An extensive exploration of theories of foreign direct investment." *Risk Governance & Control: Financial Markets and Institutions* 5.2, 2015. P. 77-83.; Dunning John H. "The eclectic (OLI) paradigm of international production: past, present and future." *International journal of the economics of business* 8.2, 2001. P. 173-190.; Wilhelms Saskia KS, and Morgan Stanley Dean Witter. *Foreign direct investment and its determinants in emerging economies*. Washington DC: United States Agency for International Development, Bureau for Africa, Office of Sustainable Development, 1998. P. 38.; Pegkas, Panagiotis. "The impact of FDI on economic growth in Eurozone countries." *The Journal of Economic Asymmetries* 12.2, 2015. P. 124-132.; Baiashvili, T., and L. Gattini. "Impact of FDI on economic growth: The role of country income levels and institutional strength. European Investment Bank." Working Paper 2020/02, 2020. P. 16.; Wheeler, David, and Ashoka Mody. "International investment location decisions: The case of US firms." *Journal of international economics* 33.1-2, 1992. P. 57-76.; Asiedu, Elizabeth. "On the determinants of foreign direct investment to developing countries: is Africa different?" *World development* 30.1, 2002. P. 107-119.; Bénassy-Quéré, A., Coupet, M., Thierry, M. *Institutional Determinants of Foreign Direct Investment*. The World Economy. Vol. 30 (5), 2007. P. 764-782.; La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. W. *Law and finance*. *Journal of Political Economy*, 106(6), 1998. P. 1113-1155.

⁵ Oblomurodov N.N. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. 2008. 14 b.;

etish va ulardan samarali foydalanish, tartibga solishning ilmiy-amaliy masalalari batafsil o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda institutsional omillar, ayniqsa, MDHning panel ma'lumotlari asosida ekonometrik modellarining ahamiyati yoritilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston milliy iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar barqarorligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Valiyev B.B. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Dochtor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2017. 23-24 b.; Вахобов А.В., Г.Х.Разикова, Ш.Х.Хаджибакиев Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Т.: «Молия» 2011. 124 с.; Бекмурадов А.Ш. Глобальные тренды на мировых финансовых рынках и проблемы привлечения технологических инвестиций для реализации промышленной политики Узбекистана, Молия ва банк иши электрон илмий журнали. №2, январь, 2016.; Shermukhamedov A.T., Ismailova N. "Uzbekistan: growth of the investment climate in free economic zones" European science, no. 2 (44), 2019, P. 22-26.; Berkinov B.B. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar samaradorligi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №5, 2015.; Исаджанов А.А. Узбекистан: потенциал инвестиционного сотрудничества. Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан. №1, 2008.; Мавланов И. Трансформация экономической дипломатии Узбекистана для реализации внешнеэкономических приоритетов Стратегии действий Республики Узбекистан на 2017–2021 гг. Международные отношения, УМЭД. №01, 2018. 62-73 с.; Сиражиддинов Н., Закирова С.А., Султанова Г.К., Мингишев Л.У., Илхомжонов И.И. Повышение конкурентоспособности экономики Узбекистана в условиях либерализации и углубления экономических реформ. Монография, Ташкент — "IQTISODIYOT" – 2021, 2021.; Бутиков И.Л. Основные направления совершенствования государственного регулирования фондового рынка в условиях современного этапа развития экономики Узбекистана, Экономика и финансы (Узбекистан). №. 9, 2017. 16-25 с.; Ташпулатова, Л.М., Бакоев М.Т., Исмаилова Г.С., Джурасева Р.А. Внедрение принципов эффективного государственного управления в интересах устойчивого развития в Узбекистане. Право и управление. XXI век, 17(4), 2022. 3-19 с.; Махмудов Н.М. Инвестиции — ресурсный двигатель экономики, Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан. — Ташкент, № 2, 2008.; Муинов Ж., Федяшева Г. Прогнозирование инвестиционных процессов и механизмы дальнейшего улучшения инвестиционного климата. Отчет о научно-исследовательской работы за 2015-2017 гг., ИПМИ, 2017.; Haydarov N.X. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar imkoniyatlari, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, №1, 2011.; Хашимова Н.А. Агрегатный анализ динамики структуры инвестиционного потенциала Узбекистана. Экономический вестник Узбекистана. №5. 2016.; Юлдашев Ш.Г. «Иностранные инвестиции как фактор экономического роста и либерализации национального воспроизводства Республики Узбекистан», диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук, 2001.

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy asoslarini tadqiq qilish;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini aniqlash;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishning O'zbekistondagi iqtisodiy, moliyaviy shart sharoitlarini baholash;

milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada rivojlantirish yo'llarini aniqlash;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim bo'lgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash;

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etishning mavjud holatini ekonometrik tahlil qilish;

ekonometrik modellar yordamida xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholash.

Tadqiqotning obyektini O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish usullari va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqot predmetini O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ekonometrik modellar va usullar orqali aniqlangan bog'liqliklarning roli hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy tavsiflash, tizimli va kompleks yondashuv, klassifikatsiyalash, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, korrelyatsion va regressiya tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

panel ma'lumotlar asosida qurilgan ekonometrik model orqali O'zbekistonga kirib kelayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ijobiy va salbiy tavsifdagi asosiy omillarni ta'sir etish darajalarining maqbul chegaralari aniqlangan;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi logarifmik qiymatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning hajmini oshishiga ta'siri yalpi ichki mahsulotning

logarifmik qiymati ($p = 0,006 < 0,05$), ishsizlik darajasi ($p = 0,000 < 0,05$), eksport hajmining logarifmik qiymati ($p = 0,000 < 0,05$), import hajmining logarifmik qiymati ($p = 0,522 > 0,05$), inflyatsiya darajasi ($p = 0,067 > 0,05$) qiymatlari orqali asoslangan;

jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va yashil iqtisodiyot o'rtasidagi munosabatni dinamik ekonometrik modellashtirish asosida 2028 yilga qadar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan karbonat angidrid gazi chiqindisi hajmining prognoz qiymatlari baholangan;

O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni tartibga solish va rag'batlantirish mexanizmlarining korrelyatsion-regressiya bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik model asosida xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishning 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston iqtisodiyotiga faol to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda bir nechta iqtisodiy omillarning sifat va samaradorligini oshirish zarurati xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan so'rovnoma ma'lumotlari va xorijiy mamlakatlarning tajribasini tahlil qilish orqali isbotlangan;

xorijiy kapitalning milliy iqtisodiyot o'sish suratlariga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan va yalpi ichki mahsulot va eksport o'sishiga ta'siri baholangan;

respublikaga jalb qilingan xorijiy kapitalning yashil iqtisodiyot, atrof muhitga ta'sir etuvchi omillari aniqlangan hamda CO₂ karbonat angidrid gazining salbiy ta'sirini bartaraf etish uchun ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning asoslanganligi, ma'lumotlar bazasi rasmiy manbalarga asosanib shakllantirilgani, shuningdek, tadqiqot natijasida berilgan xulosalar va takliflar mamlakatning investitsion muhitini yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish sohasidagi vakolatli tashkilotlar tomonidan chuqur o'rganilganligi va tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy-ekonometrik tahlillaridan

milliy iqtisodiyotga chet el kapitalini jalb qilish imkoniyatlarini baholash, unga ta'sir etuvchi omillar aniqlash, investitsiya siyosatida ushbu omillarga ko'proq e'tibor qaratish imkoniyatini yaratish, xorij kapitali mamlakatga kirib kelganidan so'ng, uning iqtisodiyotga va ekologiyaga ta'sirini aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallaridan xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotdagi samaradorligini oshirish va atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirlarni kamaytirish, O'zbekiston Respublikasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni yanada faollashtirish va ulardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan hukumat qarorlari, maqsadli dasturlari va rag'batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadqiq etish, oliy o'quv yurtlarida "Iqtisodiyot nazariyasi", "O'zbekiston milliy Iqtisodiyoti", "Ekonometrika", "Ekonometrikada panel ma'lumotlar tahlili" o'quv kurslarini o'qitilishida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijasida tadqiqotchi tomonidan milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ekonometrik tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy natijalar asosida:

panel ma'lumotlar asosida qurilgan ekonometrik model orqali O'zbekistonga kirib kelayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ijobiy va salbiy tavsifdagi asosiy omillarni ta'sir etish darajalarining maqbul chegaralari aniqlanganligi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 23-apreldagi 03-23-4406-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot miqdorining 1% ga o'sishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining taxminan 1,6% ga o'sishiga olib keladi. Bu esa O'zbekistonda aholi daromadlarining o'sishi mamlakatga yanada ko'proq chet el kapitali kirib kelishini ta'minlaydi.

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi logarifmik qiymatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning hajmini oshishiga ta'siri yalpi ichki mahsulotning logarifmik qiymati ($p = 0,006 < 0,05$), ishsizlik darajasi ($p = 0,000 < 0,05$), eksport

hajmining logarifmik qiymati ($p = 0,000 < 0,05$), import hajmining logarifmik qiymati ($p = 0,522 > 0,05$), inflyatsiya darajasi ($p = 0,067 > 0,05$) qiymatlari orqali asoslash taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 23-apreldagi 03-23-4406-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Jahon Bankining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining logarifmik qiymati ko'rsatkichini 1 punktga oshishi YaIMni 0,23 ga, dinamik qiymatini esa 0,7 ga oshirishi, ishsizlik darajasini esa -0,2 ga kamaytirishi aniqlangan;

jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va yashil iqtisodiyot o'rtasidagi munosabatni dinamik ekonometrik modellashtirish asosida 2028 yilga qadar baholangan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan karbonat angidrid gazi chiqindisi hajmining prognoz qiymatlari O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 23-apreldagi 03-23-4406-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida o'rta muddatli davrda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan karbonat angidrid gazi chiqindisi hajmining maqbul darajasini chegaralab turuvchi investitsiya parametrlarini aniqlash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni tartibga solish va rag'batlantirish mexanizmlarining korrelyatsion-regressiya bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik model asosida xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishning 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 23-apreldagi 03-23-4406-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishning istiqboldagi asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda hamda 7 ta ma'ruza tezislarini nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, har bir bobi 3 ta bo'limni o'z ichiga olgan 3 ta bob, 129 sahifa, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.